



LOYIHA PROFILI

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va davlat organlari o'rtaida gender tengligi bo'yicha hamkorlik

Foto: fuqarolik jamiyati va fuqarolik jamiyati tashkilotlari hamkorlari va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari 2022-yil iyul oyida Toshkentda bo'lib o'tgan milliy konferensiyada ishtirok etmoqda. Olimjon Xoliqov / Istiqlol Avlod (IA)

Loyiha hududlari

Jizzakh, Samarkand va Namangan

Loyihani amalga oshiruvchilar

Dialog Respublika NNT, va Jizzax viloyati
"Istiqlol avlod" IIHQQM

Konsorsium va hammualliflik yetakchisi

XNNT Saferworld

Loyiha moliyachisi

Yevropa Ittifoqi

Loyiha davomiyligi

1 aprel, 2023 – 31 mart, 2025

Kelib chiqish tarixi

Prezident Shavkat Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelganidan buyon O'zbekiston hukumati xotin-qizlar huquqlari va gender tengligi yo'lida yutuqlarga erishayotgan bo'lsa-da, qator islohotlar, jumladan, reabilitatsiya markazlari, boshpanalar tashkil etish, Qonunchilik va siyosatni takomillashtirish, amalga oshirish uchun ko'plab ma'daniy, siyosiy va ijtimoiy to'siqlar mavjud. Avvalgi loyiha doirasida Saferworld va hamkorlar 2021 yil iyul oyida fuqarolik jamiyati va hukumatning tegishli vakillari bilan maslahatlashgan holda tahlil o'tkazdilar, unda GZ va zararli gender normalari mamlakatdagi mojaro va zo'ravonlikni asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, gender tengligiga erishish uchun ko'plab ijtimoiy to'siqlar mavjud, ya'ni ayollar uchun boshpana va reabilitatsiya markazlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga talab katta, lekin ularni boshqarishda fuqarolik jamiyati tashkilotlari (FJT) va mahalliy hokimiyat organlarining qobiliyati yetarlicha emas.

Muqaddima

O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy zaif qatlamga olib keladigan zararli gender normalarini bartaraf etish va gender zo'ravonligiga (GZ) javoblarni takomillashtirishda Saferworld va hamkorlar Dialog, Istiqlol Avlod birgalikda ish olib bormoqda. Ikki yil davomida loyiha hamkorlari GZ oldini olish uchun xizmat ko'rsatishdagi bo'shliqlar va to'siqlarni baholash, shuningdek, hisobot berishga to'sqinlik qiladigan ijtimoiy omillar va ushbu aniqlangan muammolarni maqsadli treninglar, targ'ibot va kichik grantlar orqali hal qilishga intiladi.

Evropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan ushbu loyihaning bir qismi sifatida, Saferworld va ayollar boshchiligidagi hamkor tashkilotlar Istiqlol Avlod va Dialog, inson huquqlarini ilgari surish uchun bir nechta manfaatdor tomonlar bilan ishslash tajribasiga asoslanib, xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklarni aniqlaydi va hal qiladi. O'zbekistonda boshpanalar, reabilitatsiya markazlari, hokimiyat va mahalliy FJT tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish va gender tengligi bo'yicha ish olib boradi.

SAFERWORLD
PREVENTING VIOLENT CONFLICT. BUILDING SAFER LIVES



Yevropa Ittifoqi tomonidan
moliyalashtiriladi

Loyiha bosqichlari

1. Ehtiyojlar va bo'shliqlarni tahlil qilish uchun bir tahlil uslubini ishlab chiqish. Ushbu tahlil natijalaridan loyiha davomida targ'ibot va ma'lumotlar uchun qo'llaniladi.
2. Fuqarolik jamiyatni tashkilotlari va boshpana, reabilitatsiya markazlarini boshqaruvchi hokimiyat organlari, shuningdek, jamoat guruhlari/shaxslar uchun treninglar o'tkazish. Mamlakat va viloyatlar bo'ylab tegishli shaxslar va tashkilotlar o'rtaida tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish.
3. Fuqarolik jamiyatni tashkilotlari, boshpanalar, reabilitatsiya markazlari va jamoat guruhlari tomonidan harakatlar rejalarini ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga individual rejalar moliyalashtiriladi va samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun uslubiy yordam ko'rsatiladi. Harakatlar rejalarini treninglar va baholash jarayonida aniqlangan bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratiladi.
4. Asosiy baholash jarayonida va loyihami amalga oshirish davomida to'plangan xulosalarni almashish uchun milliy davra suhabatida taqdim etiladigan milliy darajadagi siyosat tavsiyalarini o'z ichiga olgan axborot hujjati va aloqa materiallarini tayyorlanadi.

Hamkorlik

Loyihami bajaruvchilar quyidagilar bilan hamkorlik qiladi:

- loyiha hududlarida uchta fuqarolik jamiyatni tomonidan boshqariladigan boshpana va uchta davlat reabilitatsiya markazlari (treninglar o'tkazish va salohiyatni oshirish uchun tanlangan);
- ayollar boshchiligidagi nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan Saferworld'ning avalgi loyihasi doirasida barcha 13 ta viloyatda gender tengligi va genderga asoslangan zo'ravonlik bo'yicha ilgari tuzilgan O'zbekiston NNT tarmogi;
- ijtimoiy zaif guruhlardagi ayollar va ularning oilalari, shu jumladan Iraq va Suriyadan qaytib kelganlar bilan ishlaydigan mahalliy hokimiyat va mahallalar (jamoalar) rahbarlari;
- Jamoat xavfsizligi ishchi guruhlari;
- Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, Gender tengligi va oila masalalari bo'yicha Respublika komissiyasi;

- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi;
- Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, asosan oila va ayollar qo'mitasi;
- Respublika xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazi.

Loyihaning asosiy natijalari

1. Jizzax, Samarqand va Namangan viloyatlarida (va mamlakat bo'ylab) FJT va davlat organlari xizmat ko'rsatishdagi salohiyati, muvofiqlashtirilishi va samaradorligidagi bo'shliqlarni doimiy ravishda tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Bunday tahlillar hozirgi bo'layotgan vaziyatni aniqroq tushunishga yordam beradi.
2. Fuqarolik jamiyatni guruhlari (shu jumladan boshpanalarni boshqaradiganlar va ayollar boshchiligidagi boshqa FJT), davlat reabilitatsiya markazlar xodimlari va jamoat guruhlari/shaxslar, gender zo'ravonligi qurbanlari bilan ishlash va ularga samarali xizmat ko'rsatishda, shuningdek, o'z jamoalarida zararli gender normalarini bartaraf etish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Davlat hodimlari gender zo'ravonlik holatlariga javob berishda va umuman olganda, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhetoj guruhlar bilan ishlashda gender jihatlarini ko'proq hisobga olishadi.
3. Boshpana va reabilitatsiya markazlarini boshqaradigan davlat va fuqarolik jamiyatni tashkilotlari (shuningdek, boshqa jamoat tashkilotlari) o'zlarining ustuvor yo'naliishlari shu bilan birgalikda "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik" muammolarini ilgari suradigan tashabbuslarni ishlab chiqishadi va har bir viloyat davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish orqali amalga oshirish uchun mablag' bilan ta'minlanadi. Ular tahlil davomida aniqlangan muayyan muammolarni, jumladan, gender zo'ravonligiga qarshi xizmatlar ko'rsatishdagi to'siqlarni yoki ayollar va qizlarni ijtimoiy himoyaga muhetoj guruhlarga qo'shilib qolish shakllarini hal qilishga qodir bo'ladi.
4. Mahalliy va milliy hokimiyat organlari ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlikka olib keladigan va ularning xavfsizligi va qaror qabul qilishda ishtirok etishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan zararli gender va ijtimoiy me'yorlar va tegishli amaliyat/ an'analarni yaxshiroq tushunishadi. Hokimiyat ayollar va qizlarning ustuvor yo'naliishlarini siyosiy muloqot va rivojlanishga, shuningdek, tegishli davlat strategiyalariga kiritish choralarini ko'radi.

Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi delegatsiyasi

107B, Amir Temur ko'chasi, Toshkent, Xalqaro biznes markazi (15-qavat)

Tel.: +998 78 120 16 01 | Email: delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu | Web: http://eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/index_en.htm

Saferworld- bu havfsiz hayot qurish va zo'ravonlik nizolarni oldini olishda ish olib boruvchi mustaqil xalqaro tashkilotdir.

28 Charles Square, London N1 6HT, UK Hayriya raqami. 1043843 Kompaniya cheklangan kafolat raqami. 3015948

Tel: +44 (0)20 7324 4646 | Fax: +44 (0)20 7324 4647 Email: general@saferworld.org.uk Web: www.saferworld.org.uk